

MIRZO ULUG'BEK – SHOH VA OLIM

Olimjonova Zarnigor

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining Farg'ona
Mintaqaviy filialining Qo'girchoq teatr aktyorligi 2-kurs talabasi
zulfizarshakirjanovna@gmail.com

Annotatsiya:

Mazkur maqolada, bugungi kunda nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda Mirzo Ulug'bek siymosi ulug'lanib kelinmoqda. Uni faqatgina shoh yoki sarkarda deb emas, shu bilan birgalikda tarixchi, olim va buyuk munajjim sifatida ham ko'rishimiz mumkin. Yoshligidan Ulug'bek fan va san'at turlariga, ayniqsa, matematika va astronomiyani katta qiziqish bilan o'rgangan. Ushbu maqolada uning ijodi bilan birgalikda hayotini ham yotiritib berishga harakat qildim.

Kalit so'zlar: Astronomiya, matematika, tarix, Ulug'bek, Amir Temur, munajjim, taqvim, rasadxona, xazina, ajdod, iftixor, Ulug'bek xazinasi.

Kirish

Mirzo Ulug'bek 1394 yilning mart oyida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida, bobosi Temurning harbiy yurishi paytida tug'ildi. U Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li bo'lib, unga Muhammad Tarag'ay ismi berilgan, lekin bolaligidayoq u Ulug'bek deb atala boshlab, bu ism keyinchalik uning asosiy ismi bo'lib qoldi. Yoshligida Ulug'bek fan va san'at turlariga, ayniqsa, matematik va astronomiyani katta qiziqish o'rganagan. Uning aqliy dunyoqarashi kengayishida otasi va bobosi to'plagan boy kutubxona zamin bo'ldi, u yerda ko'p vaqtini o'tkazgan va buning zamirida butun dunyoni hayratda qoldiradigan darajada kashfiyotlar qilib samolarni eng birinchilardan bo'lib o'rgandi. Ulug'bek kuchli xotira, aql va zehnga ega bo'lgani bois taxtni ham erta egallaydi. Shohrux to'ng'ich o'g'li Ulug'bekni 1411 yili Movarunnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi. Ulug'bek 17 yoshida hokim bo'lib, bobosidan farqli o'laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmas, ko'proq ilm-fanga moyil edi. U salatanatni marifatparvarlik bilan uzoq yil boshqaradi. Bu davr mobaynida madrasalar, masjidlar honaqohlar, va yana ko'plab obidalar qo'rilishiga bosh-qosh bo'ladi. Eng kattasi va haligacha butun dunyo katta qiziqish bilan o'rganadigan dargoh bu shubxasiz Ulug'bek qo'rgan va ko'plab izlanishlar olib



borgan rasadxonadir. U o‘zining rasadxonasida 1018 ta yulduz joylashuvini va astronomik yil uzunligini 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniya aniqlashga muvofiq bo‘lgan. Bir so‘z Ulug bilan aytganda Ulug‘bek davlat rivoji, tarix va ilm ma‘rifat yuksalishi uchun ulkan hissa qo‘shdi.

Ulug‘bek mana shunday yuksak darajaga erishishi va yetuk inson bo‘lib yetishishida uning ustozlaring o‘rni beqiyos, albatta. Afsuski, Ulug‘bekning boshlang‘ich ma‘lumoti va murabbiy hamda ustozlari haqida aniq ma‘lumot saqlanmagan. Lekin Ulug‘bek bolalik yillarida buvisi Saroymulk xonim tarbiyasida bo‘lgan. Bundan tashqari, Ulug‘bekning ustozlaridan biri munajjim Mavlono Ahmad bo‘lganligi ham tarixdan ma‘lum. Bu kishi Temurning saroyidagi eng yirik olimlardan bo‘lib, sayyoralarning kelajak ikki yuz yillik taqvimlari jadvallarini tuza olgan. Ulug‘bekning o‘zi keyinchalik asosiy asari bo‘lmish “Zij”ida Qozizoda Rumiyni ham “ustozim” deb ataydi va hurmat bajo keltiradi. Albatta Ulug‘bekning bunday ustoziga sodiqlik, hurmat va ehtirom ko‘rsatishi xozirgi yosh avlod uchun shakshubhasis chinakkam namuna bo‘lib xizmat qiladi. U naqadar buyuk va insonparvar shaxs bo‘lishiga qaramay, o‘z o‘g‘li qo‘lida jon beradi. Taxt uchun kurashda o‘g‘il o‘z otasini o‘ldirib padarkushga aylanadi, lekin uning bu urinishlari uzoq bormagan, uni huddi otasi Ulug‘bekni o‘ldirgani kabi taxtdan mahrum etishadi.

Ulug‘bek xazinasi - Odil Yoqubovning "Ulug‘bek xazinasi" asari, tarixiy asar bo‘lib, unda buyuk mutaffakkir, astaranom, matematik, yulduzlar haqida ma‘lumotlar to‘plagan, qirq yil Movarounnahr saltanatini boshqargan inson Mirzo Ulug‘bekning vafotidan oldingi va keyingi bir necha yillari tasvirlangan. Bunda asosan Mirzo Ulug‘bek va uning o‘gli Abdululatif o‘rtasidagi kelib chiqqan nizolar va ularga sababchi bo‘lgan insonlar ya‘ni ig‘vo tarqatuvchilar, shuningdek Ulug‘bek o‘zi ,yarm asrdir-ki ilm-fan uchun qilgan mehnatlarini, yozgan kitoblarnini yonib yo‘q bo‘lib ketmasligini xohlaganligi ,Ali Qushchi va Qalandar Qarnoqiy bu kitoblarni, Amir Temur bobosidan qolgan oltinlarni qo‘shib, Samarqandning Urgut tumanidagi Ajdar g‘origa yashirganligi haqidagi tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi. Asarda Abdulaziz, Amir Jondor, Shayxulislom Burxoniddin, Amir Abbosxo‘ja, Zargar Salohiddin va uning o‘gli Mirzo Muhiddin, nevarasi Xurshidabonu kabi obrazlar, qahramonlar hayoti ham tasvirlangan. Nima uchun ota va farzand o‘rtasida nizolar, kelishmovchiliklar kelib chiqdi? Nima sabab Abdulatif Padarkush bo‘ldi? Tarixiy romanda bu kabi savollar ochiq va oydin yoritilgan. Abdulatifni ,Mirzo



Ulug‘bek yoshligidan ko‘p tanqid qilgan, tanbeh bergan, unga mehr bermagan, biror bir maqtovg‘a loyiq ish qilsa uni rag‘batlantirmagan, barakallo demagan, hamma mehrini Abdulazizga bergan, sababi Abdulazizning tanasi nogiron, qalbi majruh emish, hamma narsa unga ekan. Hatto, Tarnob jangida jonbozlik ko‘rsatgan kim edi-yu yorliqni olgan kim? Jonbozlik ko‘rsatgan Abdulatif edi, ammo muzaffar yorliqni Mirzo Ulug‘bek ikkinchi o‘g‘li Abdulazizga berdi. Qani bu yerda haqiqat? Yetmaganiga Abdulatif kichkinaligidan Gavxarshodbegim ismli enaga qo‘lida katta bo‘ladi, uning yuzlari sovuq, istarasiz ayol edi, Abdulatif uni yoqtirmasdi, Gavxarshodbegim ham Abdulatifni emas boshqa bir shaxzodani yaxshi ko‘rardi va mehr berardi. Yosh Abdulatif na otasidan, na enagasidan mehr ko‘rib o‘sdi(asrada onasi haqida ma'lumot berilmagan).

Katta bir saroyda hamma narsasi bor-u, lekin bir tirik yetimday ulg‘aydi. Buni ko‘rib turgan ba‘zi amaldorlar va Ulug‘bekka qarshi insonlar Abdulatifning miyasini zaharlay boshladilar. O‘g‘ilni otaga dushman qildilar. Mirzo Ulug‘bek sodiq deb yurgan amirlaridan Amir Jondor, shuningdek Shayxulislom Burxoniddinlar unga xiyonat qilib, Abdulatifni unga qarshi qayradilar. Albatta bu yerda Abdulatifning padarkush bo‘lishiga faqatgina Amir Jondor yoki Shayxulislom sababchi bo‘lmadi, balki Abdulatifning yoshligidan yuragida tuyib yurgan nafratlari-yu, alamlari ham sabab bo‘ldi. Bular Abdulatif, Otasining o‘limi oldidan unga aytgan so‘zlari va o‘limini eshitgandan so‘ng qilgan o‘ylarida keltiriladi. Ulamolar Muhammad Tarag‘ayni, kufr kitoblar yozdi, bu bizning dinimizga mutloq qarshi narsalar deya uning yozgan asarlarini yoqmoqchi bo‘ldi, ammo bu ishni uddalay olishmagan.

Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish joizki, Ulug‘bek o‘rta asrning atoqli olimi bo‘lgani uchungina emas, balki xalqlarimiz tarixidagi eng murakkab og‘ir fojiani boshdan kechirgan alloma bo‘lganligi uchun ham ulug‘dir. Buyuk olim, davlat arbobi Ulug‘bek hayotiga ko‘p adiblar murojaat etganlar. Ulug‘bek siyosi yaratilgan satrlar orasida Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romani alohida ajralib turadi. Ulug‘bekdan so‘z ochgan har bir qalamkash bu ajoyib asarni chetlab o‘tishi mumkin emes. Jumladan, romanda Ulug‘bek hayotining so‘nggi davrini hikoya qilishdan boshlanadi. Roman aynan o‘z o‘g‘li otasini o‘ldirilgani va ko‘pgina hodisalar ham tilga olinadi, bir qancha tarixiy shaxslar bu asarda ishtirok etgani alohida jalb qiladi. Mirzo Ulug‘bekda insoniy g‘urur juda kuchli bo‘lgani ekanligini ko‘rdim ushbu romanda ko‘rishimiz mumkin. O‘g‘li uni o‘ldirish chog‘ida o‘limga ketayotganini bilsa ham Ulug‘bek hammadan ham Movarounahrqa qirq yil rahnamolik qilib



ortirgan asosiy boyligi-madrasalariyu rasadxonasi, nodir xazinasi-to‘plagan kutubxonasiyu yaratgan asarlari yo‘q bo‘lib ketishi uni tashvishga soladi. Xulosa qilib aytganda, Ulug‘bek, uning hayoti va bu unga bag‘ishlangan roman personajlar ruhiy dramasi tasviri jihatdan adabiyotimizda muhim yangilik bo‘lganini aytish mumkin. Biz yosh avlod mana shunday mahorat bilan yozilgan asarlar orqali o‘tmishda naqadar buyuk ajdodimiz yashab o‘tganini bilamiz va kelajak aqlod uchun faxr—iftixor bilan ayta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odil Yoqubov. Ulug‘bek xazinasi. Toshkent-1994
2. Maqsud Shayxzoda. Mirzo ulug‘bek. Toshkent-2019
3. Vikipediya.